

MAKTAB O'QUVCHILARNING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI SHAXMATNI O'QITISH JARAYONIDA RIVOJLANTIRISH VA UNING TAJRIBA-SINOV METODIKASI

Toshev Murodjon Xalilovich

“Sport faoliyati” kafedrası o'qituvchisi. Buxoro davlat universiteti

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.04.1.059>

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxmatni o'rni, uning oziga xos pedagogik va psixologik didaktik jihatlari tajriba-sinov ishlarida o'rganilib, olingan natijalar tahlil qilingan hamda taklif va mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qobiliyat, intellekt, shaxmat, pedagogik, psixologik, didaktik, tajriba-sinov.

РАЗВИТИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ НАВЫКОВ ШКОЛЬНИКОВ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ШАХМАТАМ И ЕГО МЕТОДИКА ЭКСПЕРИМЕНТА И ТЕСТИРОВАНИЯ

Тошев Муроджон Халилович

Преподаватель кафедры «Спортивное деятельность»

Бухарского государственного университета

Аннотация: В статье в экспериментальных работах изучаются роль шахмат в развитии интеллектуальных способностей учащихся младших классов, ее уникальные педагогические и психолого-дидактические аспекты, анализируются полученные результаты, высказываются предложения и замечания.

Ключевые слова: шахматы, интеллект, способности, педагогические, психологические, дидактические, проверка опытом.

DEVELOPMENT OF INTELLECTUAL SKILLS OF SCHOOLCHILDREN IN THE PROCESS OF TEACHING CHESS AND ITS METHODS OF EXPERIMENT AND TESTING

Toshev Murodjon Khalilovich

Teacher of the department «Sports activities» Bukhara State University.

Abstract: The article deals with the role of chess in the development of intellectual abilities of primary school students, its specific pedagogical and psychological didactic aspects in the experimental work, analyses the obtained results, makes suggestions and comments.

Keywords: chess, intelligence, ability, pedagogical, psychological, didactic, verification by experience.

Jahonda xorijiy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning negizida o'quvchilarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni maktab ta'lim tizimiga keng ko'llamda tadbiiq etish yotadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishda shaxmatni o'ziga xos pedagogik va psixologik didaktik jihatlari mavjudligi ko'plab tadqiqotlarda o'z aksini topgan [4, 551- 559].

Dunyoda shaxmat o'yining bolaning intellektual qobiliyatlarini rivojlanishiga ta'siri bo'yicha bir qator yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: kognitiv qobiliyat va shaxmat mahorati o'rtasidagi bog'liqlik; maktablarda shaxmatni o'rganish jarayonida egallangan ko'nikmalar matematika, o'qish va umumiy bilim ko'nikmalariga ijobiy o'tishi; shaxmat mashg'ulotlarining maktab o'quvchilarining akademik ko'rsatkichlariga, xususan xotiraga, doimiy e'tibor va ijodkorlikka ta'siri; shaxmat tasavvurni, tahlilni, fikrlash va diqqatning maxsus shakllarini rivojlantirishi va boshqalar bularga misol bo'ladi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar har bir o'quvchining intellektual va ijodiy tafakkurini rivojlantirish uchun eng qulay psixologik va pedagogik sharoitlarni yaratishga asoslangan yangi zamonaviy ta'lim yondashuvlarni va texnologiyalarni, shu jumladan shaxmatni boshlang'ich ta'lim dasturiga bosqichma va bosqich olib qirishga qaratilgan. Bunga Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev tomonidan imzonlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-yanvardagi "Shaxmatni yanada rivojlantirish va ommaviylashtirish hamda shaxmatchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4954-son[1.] va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida shaxmatni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3906-son[2] qarorlarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir. Ushbu qarorlarda o'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, "Maktabda shaxmat" loyihasini amalga oshirish[3], uning doirasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinflar o'quvchilari uchun shaxmatga o'qitish tizimini yanada rivojlantirish orqali qamrovni yilma-yil oshirib borish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan. Shular bilan bir qatorda, maktabda ta'lim sifatini oshirishda shaxmat fanining nazariy va metodik asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish zarurati ko'zga tashlanmoqda.

R.G.Safarova inson bilimi qanchalik keng va chuqur bo'lsa, uning aqliy faoliyatining tajribasi shunchalik mukammallikka ega. U shunchalik ko'p hal etilmagan muammolarni ko'ra oladi, ongidan shunchalik tez echimni talab etuvchi fikriy vazifalar yuzaga keladi, deb aqliy rivojlanishni bilimlarni chuqurlashtirishga bog'laydi. Aqlning muhim sifatlaridan bo'lgan tafakkurga alohida urg'u berib, uning yordamida sezgi, idrokka berilmagan va umuman kuzatish imkoniyati bo'lmagan hodisalarni aqlan hal qilish mumkinligini ta'kidlaydi. [5.240b.]

SH. Sharipov o'z ishlarida zehn, iste'dod aqliy taraqqiyot yuzasidan tadqiqot ishlari olib borgan. Hatto bu borada bank tuzishga ham muvaffaq bo'lgan. «Intellektual potensialni boyitish aqliy zakovatni shakllantirishning ommaviy va shu bilan birga an'anaviy, hech kimning e'tiroziga sabab bo'lmaydigan turlariga diqqatni ko'proq qaratish, imkon darajada ular moddiy-moliyaviy tomonlarini kuchaytirish, ma'lum yutuqqa erishayotgan yoshlarni kengroq rag'batlantirish, ularga tegishli moliyaviy va madaniy muhit yaratish juda katta ahamiyatga ega. [6.307b.]

Rus olimi B. T. Lixachev o'z tadqiqotlarida intellektual rivojlanish - bu intellektual faoliyatning har xil turlarini (nazariy, amaliy, ijodiy, empirik) o'zlashtirish qobiliyati ekanligini ko'rsatib o'tgan[7.607b.]. Psixolog olim Vigotskiy L. S. bolaning intellektual rivojlanishida ikkita darajani ajratdi - hozirgi, shakllangan daraja (aktual doira), yaqin rivojlanish sifati (rivojlanish doirasi). Yaqin rivojlanish doirasi bu bola hali mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar yordamida uddalay oladigan faoliyat turlari. L. S. Vigotskiyning ta'kidlashicha, ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning aktual darajasiga asoslangan bo'lib, bevosita rivojlanish doirasi darajasiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak[8.130b.].

YU. K. Babanskiy intellektual ko'nikmalar bolada quyidagi xususiyatlarda namoyon bo'ladi, deb hisoblaydi: fikrni bir joyga jamlagan holda ma'lumotni qabul qilish, o'quv materialini mantiqiy ravishda o'ylash, mustaqil ravishda vazifalarni bajarish, o'zini o'zi boshqarish va boshqalar[9.432b.].

YE. N. Kabanova-Mellerning nuqtai nazari, intellektual rivojlanishning muhim xususiyati aqliy faoliyatning ratsional usullaridan foydalanishdir[10.288b.]. Intellektual rivojlanishning o'ziga xos xususiyati - bu intellektual ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Ularni ikkita guruhga ajratish mumkin: umumiy va maxsus. Umumiy intellektual qobiliyatlarga fikrlarni ifoda etish, tinglash, o'qish, yozish, adabiyot bilan ishlash qobiliyatlari kirs, maxsus ko'nikmalarga matematik fanlar sohasidagi hisoblash qobiliyatlari, musiqa tinglash va notalarni o'qish qobiliyati va shunga o'xshash kiradi. Psixolog olimimiz E. G'oziyevning ta'kidlashicha, ta'lim jarayonida idrok maqsadga muvofiq pertseptiv faoliyatga aylanib va tobora murakkablashib boradi, natijada, o'quvchida kuzatish, nazorat qilish, farqlash imkoniyati rivojlanadi. Idrokning rivojlanishi o'qituvchining bevosita rahbarligida amalga oshadi. Idrokni rivojlantiradigan muhim vositalaridan biri - narsa va hodisalarning o'xshash hamda alomatlarini ajrata olish ko'nikmalarini tarkib toptirishdir[11.224b.].

B. S. Gershunskiy o'zining ilmiy ishlarida «Shaxmat va pedagogika» muammosini, uning

o'ziga xos vazifalarini ko'rib chiqadi va kerakli ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini bayon etadi [12.311b.].

Kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda, shaxmat bo'yicha amaliy mashg'ulotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, bunday mashg'ulotlarga o'quvchilar katta qiziqish bilan va faol qatnashadi. Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish darslarni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish, kompyuter texnikasidan mustaqil foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarda shaxmatga bo'lgan qiziquvchanlikni rivojlantirish imkonini beradi. Kompyuter dasturlarini metodik qo'llashning, uning psixologik va didaktik jihatlariga to'xtalib o'tamiz.

Umumiy ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmatni o'qitish metodikasi davlat ta'lim standartida belgilangan talablarni hisobga olgan holda qo'llanishi kerak, u quyidagi asosiy maqsadlarni amalga oshirishni ta'minlashga mo'ljallangan:

- o'quvchi shaxsining rivojlanishi, uning ijodiy qobiliyati, o'qishga bo'lgan qiziqishi, o'rganish istagi va qobiliyatini rivojlantirish. Metodika boshlang'ich sinf o'quvchilarida xotirani mustahkamlash, mantiq, fazoviy fikrlashni rivojlantirish va kognitiv qiziqishni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan o'quv kompyuter dasturlari majmuini o'z ichiga oladi;

- axloqiy va estetik fazilatlarini tarbiyalash, o'ziga va atrofdagilarga nisbatan ijobiy va estetik sifatlarni tarbiyalash;

- o'quvchining turli faoliyat turlari sub'ekti sifatida shakllanishini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalar tizimini o'zlashtirish. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv turli toifadagi o'quvchilar psixikasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Asosiy bilimlar tizimi darsliklar ichidagi talablar va mazmunga mos keldi. Shu bilan birga, o'quv materialini boshqa o'quvchilarga nisbatan tezroq o'zlashtiradigan faol o'quvchilar uchun qo'shimcha vazifalar va mashqlar to'plami ko'zda tutilgan;

- o'quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini muhofaza qilish va mustahkamlash. Tegishli sanitariya me'yorlari va qoidalaridan ko'chirmalar, maktab o'quvchilarining kompyuter texnikasidan foydalanishda hatti-harakatlarining namunaviy qoidalari va boshqa qoidalar berilgan;

- o'quvchining individualligini saqlash va qo'llab-quvvatlash. O'quv dasturida o'quvchida xolis niyat, raqibga hurmat, ota-ona va sinfdoshlarga muhabbat, fuqarolik vatanparvarligi va boshqalar kabi ijobiy fazilatlarini tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan o'quv materiallari mavjud.

Dastlabki bosqichda maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatishda asosiy o'rinni o'yinning o'zi egallaydi. Maktab o'quvchilarini kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda shaxmat o'ynashga o'rgatish metodikasini ishlab chiqishda deyarli boshidanoq qarama-qarshilik elementlariga, ya'ni raqobatbardoshlikka ega bo'lgan o'yin faoliyatining xususiyatlari hisobga olingan.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan «Qadam va qadam» o'quv kursi kompyuter dasturlaridan foydalangan holda bir o'quv yili davomida 34 soat o'qitish uchun mo'ljallangan. Kurs ikkinchi sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Shaxmat asoslarini o'rganishni istagan o'rta maktab o'quvchilari uchun o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga mos holda tuzilgan dasturlar mavjud. O'quv yilining birinchi choragida, asosan, o'quvchilarning reproduktiv (RT) tayyorgarligi rejalashtiriladi. Ushbu chorakdagi ma'lumotlar umumiy material miqdorining 20 foizini tashkil qiladi. Ikkinchi va uchinchi choraklarda reproduktiv o'qitish hajmi mos ravishda 60 va 40 foizgacha kamayadi va faol (samarali) o'qitish ulushi ortadi. To'rtinchi chorakda passiv (reproduktiv) ta'lim ulushi 20 foiz bo'ladi va faol (samarali) ta'lim ulushi 80 foizga oshadi. Quyidagi jadvalda ta'limning reproduktiv (passiv) va produktiv (faol) o'qitish usullarini choraklar bo'yicha taqsimoti.

1-jadval.

Ta'limning reproduktiv va produktiv o'qitish usullari

O'quv choragi	Reproduktiv ta'lim	Produktiv ta'lim
I	80%	20%
II	60%	40%
III	40%	60%
IV	20%	80%

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompyuterda ishlash vaqti, «Sanitariya-gigiena normalari va qoidalari» tavsiyalariga ko'ra, yigirma daqiqadan ortiq bo'lishi mumkin emas. «Qadam va qadam» shaxmat kursi quyidagi bosqichlar(qadamlar)ga bo'linadi:

«Qadam va qadam» kursining mazmunli rejasi 2 jadval.

Ta'lim dasturining asosiy mazmuni	Amaliy ko'nikmalar	Intellektual qobiliyatlarning indikatorlari
1. Shaxmat taxtasi bilan tanishuv. Oq va qora katakchalarning joylashuvi. Oq va qora hududlar. Shaxmat taxtasini shartli bo'lish. Vertikallar, gorizontalalar va diagonallar. Maydon manzili	Shaxmat doskasini to'g'ri joylashtirish. Shaxmat taxtasidagi chiziqlar bilan ishlash ko'nikmalari. Katakalar bilan ishlash ko'nikmalari.	Diqqat, tezkor xotira, yordamchi vositalardan foydalanish, tasavvur,
2. Donalarning nomlanishi va belgilanishi. Oq va qora donalar nomi. Shaxmat taxtasida oq va qora katakchalar. Donalarning dastlabki joylashuvi.	O'yin oldidan donalarni to'g'ri joylashtirish	Diqqat, tezkor xotira, yordamchi vositalardan foydalanish, tasavvur,
3. Donalar yurishi va ularni olish. Piyoda, shox, rux, fil, ot. Piyoda, shox, rux, fil, ot bilan olish.	Donalar bilan yurish va ularni olish ko'nikmalari	Rejalashtirish, tezkor xotira, mantiqiy fikrlash, tasavvur,
4. Donalarning nisbiy qiymati. Donalar qiymati. Donalarning nisbiy qiymati. Donalarning joylashuviga (doska cheti, doska markazi) bog'liq holda donalarning nisbiy qiymati.	Donalarning nisbiy qiymati aniqlash bo'yicha ko'nikmalar	mantiqiy fikrlash, rejalashtirish, mustaqil bajarish
5. Piyodaning imkoniyatlari. Piyodaning o'ziga xos yurushlari. Piyodani boshqa siphoga aylanishi. Piyodani yo'lakda yurishi.	Piyodani yurish, olishi va boshqa siphoga aylanishi bo'yicha ko'nikmalarning shakllanishi	Rejalashtirish, basharot qila olish, mantiqiy fikrlash, tasavvur
6. O'yin mazmuni va maqsadi. Yutuq, durang yoki mag'lubiyat. Nima uchun donalarni siljitish kerak? Raqibni qanday yutish kerak, shoxni qanday asirga olish mumkin? Yutuq, durang, mag'lubiyat nimani anglatadi? Durang	har bir dona bilan alohida va boshqa donalar bilan hamkorlikda o'ynash ko'nikmalarini	Rejalashtirish, basharot qila olish, mantiqiy fikrlash,

7. O'yin boshlanishi. Debyut. Debyutning asosiy tamoyillari. Markaz roli. Yengil va og'ir Donalar tushunchasi. Markazning piyoda va yengil donalarini nazorat qilish. Debyutda yurishlarning tartibi. Debyutning asosiy tamoyillari. Donalarning rivojlanishi. Yengil donalarning rivojlanishi. Yengil donalarning maqsadga yo'naltirilgan chiqishi. Markazning foydali ochilishi. O'yin boshida tempni yo'qotish tushunchasi. Birinchi harakat va tashabbusning afzalligi. Debyutda faollik. Markazni egallash,

figuralarni rivojlantirish,
rokirovkani bajarish
(uzun va qisqa), Rejalashtirish,
tezkor xotira,
basharot qila olish,
o'z - o'zini boshqarish,

mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash

8. O'yinning oxiri. Endshpil'. O'yinning oxiri nima? Endshpilning maqsadi va vazifasi. Endshpilda asosiy harakatlar. O'yin oxirida shohning faolligi. Piyodani farzga olib kelish. Yolg'iz qolgan shohni turli Donalar bilan taslim qilish.- shox e'lon qilish;

- mot qilish;
- pot (durang) qilish.
- bir yurishda mot.

Rejalashtirish,

tezkor xotira,
basharot qila olish,
o'z - o'zini boshqarish,

mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash

Yakuniy natija «FIDE qoidalari bo'yicha shaxmat donalari bilan yurishni bilish». Buning natijasida quyidagi

ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- shaxmat doskasini to'g'ri joylashtirish;
- shaxmat doskasida donalarni to'g'ri joylashtirish;
- donalar bilan to'g'ri yurish;
- o'yinni to'g'ri boshlash;
- shohga mot qo'yish – partiyani boshidan oxirigacha o'ynash;
- shaxmat doskasida qoidalariga rioya qilish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim berishda o'quvchilar diqqatini shaxmat donalarning hozirgi holatiga emas, balki ularning munosabatlariga va shaxmat taxtasida harakat qilish imkoniyatlariga qaratilishi muhim. Shu bilan birga, har bir pozitsiyada o'yinning eng kuchli, eng samarali davomini topish vazifasi qo'yiladi.

Shaxmat o'yinida o'quvchilar tomonidan ko'p uchraydigan xatolar quyidagicha: donalarni almashtirib qo'yish, o'z donalarni himoyasiz qoldirish, donalarning kuchini yetarlicha baholamaslik, xavf xatarni to'g'ri baholamaslik, yurish variantlarini ko'ra olmaslik va boshq.

Bularning barchasi nafaqat fazoviy tasavvurni takomillashtirish, balki maktab o'quvchilarining boshqa ruhiy fazilatlarini: tezkor xotira, diqqat va mantiqiy fikrlashi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

«Qadam va qadam» kursi shaxmatni o'zlashtirishning birinchi darajasi hisoblanib, shaxmat o'yinining asosiy tushunchalari bilan tanishtirishga mo'ljallangan. Ta'lim shaxmat o'yinini endi o'ynashni boshlovchilar uchun mo'ljallangan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar shaxmat o'yini tushunchalari bilan tanishishadi.

Barcha didaktik o'yinlar va topshiriqlar shaxmat taxtasida o'ynashda shaxmatchilar duch keladigan u yoki bu real vaziyatni o'quvchilar uchun qulay tarzda modellashtiradi. Shu bilan birga, barcha o'yinlar va vazifalar ko'ngilochar va tarbiyaviy bo'lib, mantiqiy fikrlash va intellektual qobiliyatlarni rivojlantirishga samarali yordam beradi.

Boshlang'ich darajadagi o'qitish quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan: o'yin qoidalarini bilish, o'yin maqsadini tushunish va o'ynay olish (barcha donalarning harakatlanishi, mumkin bo'lmagan harakat, figura olish, shaxmat o'yinining maqsadi, shaxmat o'ynash qobiliyati).

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Гершунский Б.С. Шахматы - школе будущего // Образователно-педагогическая прогностика: Теория, методология, практика. - М.: Флинта: Наука, 2003. - С. 298 – 311.

2. Тошев М. Х. Мактаб ўқувчиларини шахматга тайёрлашнинг шакллари: 10.53885/edinres. 2021.44. 19.065 MX Тошев БухДУ таянч докторанти //Научно-практическая конференция. – 2021.

3.Halilovich T. M. The role of chess in the development of intellectual abilities of secondary school students (based on computer technology) //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 4. – С. 1254-1258.